



## ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-avgust

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,3 foizga oshdi.


Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,8 foizni tashkil etdi. Yirik korxonalarning o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29,0 foizga ko'payishi Avtotransport vositalari savdosiga, alkogolli ichimliklari va yirik shoxli qora mollarga aralash yem hashak talabning oshishi bilan izohlanadi

**2018 yil yanvar-avgust oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda )**



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (29,5 foiz), Beruniy (10,0 foiz), Turtkul (9,3 foiz), Xujayli (9,0 foiz) va Amudaryo (6,9foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 3,9 foizga oshib, 1414,7 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-avgust oylarida 1127,1 ming so'mni tashkil qilgan edi).



O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Nukus shahri (2474,5 ming so'm) Qorauzak tumani (2094,9 ming so'm) Xujayli tumani (1949,8 ming so'm) va Taxtakupir tumanida (1891,5 mln.so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 82,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 10,0 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiyligi hajmdagi ovqatlanish korxonalarining ulushi 2,6 foizni tashkil qildi.

### **Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**


	Ming so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston</b>		
Respublikasi	1414,7	103,9
Amudaryo	945,1	102,7
Beruniy	1411,9	103,9
Qonlikul	1006,7	102,5
Qorauzak	2094,9	103,0
Kegeyli	857,1	102,3
Qungirot	1184,5	104,5
Muynoq	597,9	102,2
Nukus tumani	1003,0	101,3
Taxiatosh	988,1	102,7
Taxtakupir	1891,5	102,5
Turkul	1170,3	104,0
Xujayli	1949,8	103,3
Chimboy	955,1	103,7
Shumanay	1194,7	102,8
Ellikqala	970,8	101,4
shahar:		
Nukus shahri	2474,5	105,9

## O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 foizga o'sdi.

Umumi chakana savdo tovar aylanmasining 69,3 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumi tovar aylanmasining deyarli 169,5 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 5,4 foizni tashkil etdi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: D.Qalnazarov

(0371) 230-82-06